



THE HISTORICAL AND ETIMOLOGICAL ROOTS OF GERMAN PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR LINGUOCULTUROLOGICAL MEANING

Rakhmatullayeva Dilrabo

Intern teacher at the Uzbekistan State World Languages
University

dilrabo_rahmatullayeva@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474877>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

*Phraseology, idiom, fossilized
collocation, etymology,
semantic unity, linguistic-
cultural features.*

ABSTRACT

*This article provides a linguistic analysis of German
phraseological units, their historical etymological roots
and sources, their structural-semantic properties, and
their linguistic-cultural interpretation.*

NEMIS TILIDAGI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING TARIXIY- ETIMOLOGIK ILDIZLARI VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK MAZMUNI

Rahmatullayeva Dilrabo

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti stajyor-o'qituvchisi

dilrabo_rahmatullayeva@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474877>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

*Frazeologiya, idioma,
turg'un birikma, etimologiya,
semantik yaxlitlik,
lingvomadaniy xususiyat.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada nemis tilidagi frazeologik
birliklarning lingvistik tahlili, tarixiy etimologik
ildizlari va manbalari, ularning struktur-semantik
xususiyatlari hamda lingvokulturologik talqini
yoritilgan.*

KIRISH

Frazeologiya tilshunoslikning murakkab va keng qamrovli sohalaridan biridir. Tilning frazeologik fondi milliy mentalitet, tarixiy-madaniy jarayonlar, xalqning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Nemis tilida ham frazeologik birliklar alohida semantik tizimni tashkil etib, o'zining barqarorligi, obrazlilik va ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birgalikda bunday iboralarning asosiy xususiyati shundaki, ularning mazmuni tarkibiy qismlari- alohida so'zlarning lug'aviy ma'nosidan emas, balki butun birlikning metaforik obrazidan kelib chiqadi.

Nemis tilidagi frazeologizmlar milliy-madaniy semantika, stilistika va ijtimoiy tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni lingvistik jihatdan tadqiq etish tilshunoslikda dolzarb masalalardan biridir. Adabiy matnlar esa frazeologizmlar orqali chuqur falsafiy va madaniy ma'nolarni ifodalash imkonini beradi. Shuningdek,



yo'zuvchilar ijodida badiiy-estetik vosita sifatida insonning ruhiy kechinmalari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlar, ma'naviy izlanishlar jarayonini yoritishda katta rol o'ynaydi. Shu sababli nemis frazeologizmlarining lingvistik tahlili ularning o'rganilish muammolarini ochib berish bilan bir qatorda, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va til didaktikasi uchun ham metodologik asos yaratadi.

Frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari

Frazeologik birlik – bu semantik yaxlitlikka va barqaror tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan til birligi hisoblanadi. Nemis tilidagi frazeologizmlar ko'pincha metaforik asosga ega bo'lib, matnga emotsional ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Ular odatda quyidagi belgilarga ega:

1. **Semantik yaxlitlik** – ibora so'zma-so'z emas, yaxlit ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Masalan: „ins Grass beißen“ (maysani tishlash)- „o'lim topmoq“.

2. **Grammatik barqarorlik** – frazeologizmlarning tarkibi odatda o'zgarmaydi. „Öl ins Feuer gießen“ iborasida biror komponentni almashtirish mumkin emas.

3. **Obrazlilik** – xalq tafakkuridan kelib chiqqan obraz orqali yangi ma'no yaratiladi. Masalan: „jemanden an der Nase herumführen“ – kimnidir burnidan yetaklash, ya'ni „aldamoq“ ma'nosida.

4. **Madaniy kodlash** – frazeologizm milliy-madaniy tajribaning mahsuli sifatida qaraladi.

Frazeologizmlarning etimologiyasi va lingvokulturologik mazmuni

Frazeologik birliklarning kelib chiqishi turlicha bo'lib, ayrimlari kontekstdan anglashinishi oson bo'lsa (sich winden wie ein Aal - ilondek sirg'almoq), boshqalari boshqa tillardan kirib kelgan va tarixiy ildizlari qorong'ulikda qolgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun frazeologizmlarning tarixiy-etimologik izohi nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Zero, iboralar tilda muzlagan xotira bo'lib, ular orqali xalqning qadimiy dunyoqarshi, urf-odatlar va turmush-tarzi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Nemis ijodkorlari asarlarida esa uchraydigan fraza va idiomalar esa madaniy kodlarning ifodasi sifatida nemis xalqining ruhiy olami, tarixiy tajribasini va madaniy qadriyatlarini anglashga yordam beradi.

Nemis tilidagi ko'plab frazeologizmlar qadimgi german xalqlarining urf-odatlar, diniy marosimlari, shuningdek Bibliya va qadimgi Rim va Yunon antik madaniyati va tarixiy voqealari hamda xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan.

Masalan:

- **Bibliyaviy ildizlar:** *Im Schweiß seines Angesichts (Uning yuzidan oqayotgan terda)- peshona teri bilan, qattiq mehnat bilan*

Bu Injilning Eski Ahdidan (Ibtido, 3:19) olingan bo'lib, Xudo Odam Atoga gunoh qilganidan keyin unga: *“Im Schweiß deines Angesichts sollst du dein Brot essen, bis du wieder zur Erde werdest.”*¹ (Peshona tering bilan noningni yeysan, to yana tuproqqa qaytguningcha) deydi. Ushbu ibora diniy-madaniy konnotatsiyaga ega bo'lib, insonning hayoti va rizqi og'ir mehnat evaziga qo'lga kiritilishi lozimligi g'oyasini anglatadi. Ijtimoiy va axloqiy talqinida esa halol rizqning qadriyat sifatida ter bilan, ya'ni mehnat bilan chambarchas bog'lanishini aks ettiradi. Bu ibora nemis tiliga Injildan kirib kelgan, mehnatning muqaddasligi va zarurligini ifodalovchi diniy ildizga ega bo'lgan, ammo hozirgi zamonda umumxalq majoziy iboraga aylangan va asosan **“og'ir mehnat orqali muvaffaqiyatga erishish”** ma'nosida qo'llaniladi.

¹ Röhrich, Lutz. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg: Herder Verlag, 1991, band 4, S 1444



Atoqli nemis yozuvchisi Ludwig Tieck o'zining "Musiqiy azoblar va quvonchlar" (Musikalische Leiden und Freuden) asarida bu ibora tilga olinadi. ***"Im guten Glauben an das, was er im Schweiß seines Angesichts gelernt hatte, trug er einige beliebte Melodien vor, und wir hörten ihm mit Vernügunz zu"***.² (U peshona teri bilan o'rgangan narsasiga chin dildan ishonar, yoqimli kuylarning ayrimlarini chalib berar, biz uni mamnuniyat bilan tinglardik). Bu yerda yozuvchi diniy ma'nodan chiqib, balki ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan ham bog'lagan, ya'ni madaniy-ma'naviy mehnatning qiymatini insonning erkinligini va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi asosiy vosita deb ifodalaydi va ijtimoiy qadriyat sifatida qadr topishini ko'rsatadi.

- **Antik manbalar:** *"Das trojanische Pferd³(troya oti)-foyda ko'ringan, lekin yashirin xavf tug'diruvchi hiyla*

Bu ibora antik yunon mifologiyasidan o'tgan bo'lib, uning manbasi Gomerning "Iliada" eposi, Vergiliyning "Aeneis" asari va Troya urushi haqidagi qadimgi yunon rivoyatlaridir. Afsonaga ko'ra yunonlar Troya shahrini egallash uchun ulkan yog'och ot yasab, uni go'yo sovg'a sifatida troyaliklarga qoldiradilar. Troyaliklar otni shahar devorlari ichiga kiritgach, uning ichiga yashiringan yunon askarlari kechasi chiqib, darvozani ochadilar va shaharni vayron qiladilar. Shu tariqa yog'och ot Troya qulashining qulashining bevosita ramziga aylangan.

Bu dastlab konkret tarixiy-epik voqeani anglatgan bo'lsa, keyinchalik u metaforik ma'no kasb etgan. Zamonaviy nemis tilida "Trojanisches Pferd" tashqi ko'rinishda foydali yoki zarar keltirmasdek tuyuladigan, ammo aslida *yashirin xavf* yoki *hiyla* ramzi sifatida ishlatiladi. Bu ibora siyosiy, ijtimoiy va madaniy matnlarda keng qo'llanilib, odamlarni ogoh bo'lishga undaydi.

Zamonaviy yozma manba sifatida esa Kontext Wochenzeitung haftalik gazetasining 2017-yil 347-sonidagi maqolada ("Das trojanische Pferd der Moderne") zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirishni maktab ta'limiga kirib kelayotgan xavf, ya'ni tashqi jihatdan foyda ko'rinadigan, lekin aslida zararli hodisa sifatida metafora qilinadi. ⁴Shuningdek, XXI asrda ibora terminologik ma'noga ega bo'lib, kompyuter sohasida (Trojaner) zararli dasturlar, viruslar nomi sifatida ishlatiladi.

- **Jang va harbiylik tarixidan:** *"die Flinte ins Korn werfen"*⁵(qurolni ekinzorga tashlash) - umidsizlikka tushish, ishni tashlab qo'yish, taslim bo'lish

Dastlab bu ibora XVII-XVIII asrlarga oid deyishimiz mumkin. Chunki bu davrlarda Germaniya hududida ko'p urushlar bo'lib o'tgan. O'sha davrda askarlar jangda taslim bo'lsa va umidini yo'qotsa, qurolini (Flinte-miltig'ini) dala (Kornfeld-bug'doyzor, ekin maydoni) ichiga tashlab chiqib ketgan. Bu yerdan qurolni qayta topish qiyin bo'lgan. Bu - ***taslim bo'lish va umidini yo'qotish, kurashdan voz kechish*** ramzi bo'lib qolgan.

Dastlab bu ibora harbiy jargon sifatida ishlatilgan, keyinchalik nemis harbiy qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodida uchragan. Vaqt o'tishi bilan yozuvchilar tomonidan majoziy ma'noda qo'llanilib, frazeologizmga aylangan va kundalik tilda ham mustahkam o'rnashib qolgan.

Nemis professori Dr. Hans Schemannga tegishli bo'lgan Deutsche Idiomatik nomli lug'at kitobida *"die Flinte ins Korn werfen"* shaklida (sich ergeben, verzweifeln) ***"taslim***

² Tieck, Ludwig. Musikalische Leiden und Freuden. Online Ausgabe – Halle, Universität- und Landesbibliothek Sachsen - Anhalt, 2014

³ Röhrich, Lutz. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg: Herder Verlag, 1991, band 4, S 1168

⁴ Schredle, Minh. "Das trojanische Pferd der Moderne". Kontext Wochenzeitung, Ausgabe 347. November 22, 2017. <https://www.kontextwochenzeitung.de>

⁵ Röhrich, Lutz. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg: Herder Verlag, 1991, band 2, S 461



bo'lish, umidini yo'qotish" ma'nosida qayd etadi. Deutsche Idiomatik kontekstida "*warum will er denn die Flinte ins Korn werfen? Er hat doch noch gar nichts alles versucht. Unsinn, so schnell gibt man doch nicht auf!*"⁶ kabi misol esa bu iboraning yozma manbalarda qayd etilganini ifodalaydi.

Mashhur nemis shoiri Christian Morgenstrenning "*Pälmström*" nomli to'plamida (1910) "*Die weggeworfene Flinte*" she'ri joy olgan.

*Pälmtröm findet eines Abends,
als er zwischen hohem Korn
singend schweift,
eine Flinte.*⁷

- **Qadimgi ovchilik an'analaridan:** *durch die Lappen gehen* (matolardan o'tib ketmoq) – *qo'ldan chiqib ketmoq, boy berib qo'ymoq, imkoniyatdan foydalanmaslik*

Bu iboraning ildizi XVI-XVII asrlar ovchilik amaliyotlariga (Lappjagd) borib taqaladi. "Lappen" so'zi bu yerda ovchilar ishlatadigan katta *mato* yoki *to'rni* bildiradi. Bu davrlarda ovchilar hayvonlarni matolar bilan o'ralgan joyga haydab kirib, keyin ularni ovlaganlar. Agar hayvon Lappen-mato orasidan qochib ketsa, demak u ovchilarga "*durch die Lappen gegangen*"⁸- "*qo'ldan chiqib ketgan*" hisoblangan.

Yozma manbalarda esa frazeologik ma'nosi bilan taxminan XVIII asrdan beri qo'llanilishi tasdiqlangan. DHM (Deutsches Historisches Museum) blogida "Jagdlappen" predmetlari va ov amaliyotlarini ta'riflovchi matnlar mavjud. ⁹Adabiyotda nemis yozuvchisi Wilhelm Raabening "Der Hungerpastor" (1864) asarida uchraydi. "*Da war das Fräulein in dem Hause des Geheimen Rates Götz, welches neulich mit dem Juden durch die Lappen ging*" (Kapitel 28). Lekin bu ibora kontekstda kelgan "*qo'ldan chiqib ketdi*" yoki "*qochib ketdi*" ma'nosi bilan birga jamiyatdagi nazorat mexanizmlari haqida madaniy ma'noni ham tashiydi. Unga ko'ra jamiyatdagi ayollar erkinligiga cheklovlarni ko'rsatadi. XIX asr Germaniya burjuaziyasi doirasida qizlarning kim bilan turmush qurishi qattiq nazoratda edi. Shu bois iboraning qo'llanilishi jamiyat mentalitetini va patriarxal madaniyatini ochib beradi.

XULOSA

Shunday qilib, frazeologik birliklarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan diniy, tarixiy, mifologik va ijtimoiy omillar aniqlanib, ularning semantik bosqichlari tahlil qilindi. Shuningdek, frazeologizmlar tarkibidagi obrazlilik, ramziylik va milliy-madaniy konnotatsiyalarni ochish orqali nemis xalqining mentaliteti, dunyoqarashi va qadriyat tizimi yoritib berildi.

Frazeologizmlarning etimologik ildizlari ularning tarixiy manbalar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa nemis tilining frazeologik qatlamini o'rganishda lingvokulturologik yondashuvning dolzarbligini tasdiqlaydi. Maqolada ko'rsatilganidek, har bir frazeologik birlik o'z zamonining ijtimoiy-madaniy sharoitini, xalqning hayot tarzi va tafakkur shaklini aks ettiruvchi til hodisasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, nemis tilidagi frazeologik birliklarning etimologik tahlili va lingvokulturologik ahamiyati shundaki, u frazeologizmlarning paydo bo'lish tarixi va madaniy ildizlari bilan bog'lab, til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqani ilmiy

⁶ Schemann, Hans. Deutsche Idiomatik. Stuttgart, Dresden: Ernst Klett Verlag. 1993. S 201

⁷ Morgenstren, Christian. Pälmstrom. Berlin: Bruno Cassier Verlag 1922. S 32

⁸ Röhrich, Lutz. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg: Herder Verlag, 1991, band 3, S 928

⁹ Deutsches Historisches Museum. "Jagdlappen." DHM-Blog, 8 Juni 2017

<https://www.dhm/blog/2017/06/08/jagdlappen>



asosda chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida iboralarning milliy o'ziga xosligini ochib, ularni boshqa madaniyatlar bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

References:

1. Burger, Harald. Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen Berlin: Erich Schmidt Verlag 2010
2. Duden. Redewendungen und sprichwörtlichen Redensarten. Mannheim: Dudenverlag 2013
3. Fleischer, Wolfgang. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Max Niemeyer Verlag 1997
4. Grimm, J.W. Deutsches Wörterbuch. Leipzig: Herzel Verlag 1854
5. Morgenstern, Christian. Pälmsström. Berlin: Bruno Cassier Verlag 1922
6. Röhrich, Lutz. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg: Herder Verlag 1991
7. Raabe, Wilhelm. Der Hungerpastor. Berlin: Janke Verlag 1863
8. Tieck, Ludwig. Musikalische Leiden und Freuden. Online Ausgabe – Halle, Universität- und Landesbibliothek Sachsen - Anhalt, 2014
9. Schredle, Minh. "Das trojanische Pferd der Moderne". Kontext Wochenzeitung, Ausgabe 347. November 22, 2017. <https://www.kontextwochenzeitung.de>
10. Deutsches Historisches Museum. "Jagdlappen." DHM-Blog, 8 Juni 2017. <https://www.dhm/blog/2017/06/08/jagdlappen>